



O'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA FORTEPIANO IJROCHILIK SAN'ATINING O'RNI VA RO'LI

Sadikova Zuxra Sotvoldiyevna

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi B.Zokirov nomidagi
Milliy estrada san'ati instituti, "Fakultetlararo fortepiano ijrochiligi"
kafedrası mudiri

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10245188>

ARTICLE INFO

Received: 21th November 2023

Accepted: 29th November 2023

Online: 30th November 2023

KEY WORDS

*Estrada, janr, fortepiano, musiqa
madaniyati, barometr, supa.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada O'zbek musiqa madaniyatida
Estrada san'atining rivojlanishi haqida fikr-
mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, yurtimizda
Estrada san'atining rivojlanishida fortepiano ijrochilik
san'atining ahamiyati haqida fikr-mulohazalar
yuritilgan.*

Kirish.

Musiqiy xilma-xillik insonga tez ta'sir qiladigan hissiy tuyg'ularni faol rivojlantirish vositasidir. Ma'lumki, musiqa bilan tanishish orqali, musiqadan bir umr zavq olish mumkin. Umuman olganda, musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismidir. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin egallagan, inson shaxsining kamol topishida muhim o'rin tutadigan san'at turidir. Bizga ma'lumki, jahon musiqa tarixida muhim hisoblangan fortepiano musiqasi ijrochiligi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yakkaxon ijrochilik uslubiga asoslangan bo'lsa-da u ansambl holdagi ijroni ham taqozo etadi. Shu bois, musiqiy ta'lim muassasalarining fortepiano mutaxassisligini o'qitish bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari va rejalarida fortepiano darslari ham muhim o'rin egallaydi.¹ Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi fortepiano sinfida o'quvchi musiqa savodining boshlang'ich bosqichini ado etibgina qolmay, balki, ilk bor hamkorlikda ijro etish ko'nikmasini ham o'zlashtirilishi bejiz emas.

Musiqashunoslikdan ma'lumki musiqada turli oqim va janrlar mavjud, shulardan bugungi kunda eng ommabopi bu Estrada janri hisoblanadi. Musiqada estrada janri atrofda go'zal narsalarni to'g'ri idrok etish va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi, uning ruhiy dunyoqarashini shakllantiradi. Bu tizim inson tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat va axloqiy tarbiya olamiga olib kirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Estrada janridagi musiqiy asarlarni vokal va musiqa cholg'ulari ijrochisida ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, vokal xonandasi va fortepiano cholg'usida Estrada asarlari o'zining noodatiy ohanglari va gormonik tovushlari bilan musiqashunoslar tomonidan tavsiflanib kelinmoqda.

¹ Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.



Avvalo Estradaning mazmun-mohiyati va kelib chiqishini tahlil qiladigan bo'lsak, Estrada ispanchadan olingan bo'lib taxtasupa degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda esa — ko'ngilochar, ommabop badiiy (*abadiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy va boshqalar*) janr va shakllarning umumiy ifodasi. Shuningdek, tor ma'noda — sahnaviy professional san'at turi hisoblanadi. Rossiya va boshqalar ba'zi mamlakatlarda Estrada, Angliyada musicholl, Fransiyada varyete, kafeshantan, kabare, AQShda shou, revyu kabi atamalar bilan yuritiladi².

Estradaning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lsada, u muayyan (tijoratommabop) san'at turi sifatida XIX asrda Yevropa yirik shaharlarining demokratik ijtimoiy-madaniy muhitida yuzaga kelgan. Estradaning asosiy shakli — maxsus joylarda, muntazam ravishda o'tkaziladigan Estrada konsertidir. U bir nechta (yoki yakka) artist (so'z ustasi, xonanda, raqqos, aktyor va boshqalar)ning badiiy tugal, turfa mazmundagi kichik chiqishlaridan iborat bo'lib, ifoda vositalarining lo'nda va yorqinligi, o'ziga xosligi, ishtirokchilarning tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo'lishi bilan ajralib turadi. Yevropada Estrada tomoshalari dastlab kafe va restoranlarda, keyinchalik moslashtirilgan teatr binolari va boshqalar joylarda o'tkazilgan. Ularda so'z ustalari, qo'shiqchilar, raqqos va raqqosalar, shuningdek, akrobat, ko'zbog'lovchilar ishtirok etgan.

Ma'lumki, har bir davr yoki zamon o'z taraqqiyot darajasi negizida o'zining ma'naviy dunyosiga ega bo'ladi. Jamiyatning ehtiyojiga xos talabi, didiga mos dunyoqarashlari zamonasiga mutanosib holda shakllanadi. Istiqlolimiz tufayli shakllangan yangicha fikrlash, munosabatlar va dunyoqarashlar o'zimizga xos bo'lgan milliy istiqlol g'oyasiga asos bo'ladi. Bu esa kelajagi buyuk davlatning ma'naviy barkamolligidan darakdir. Bugungi kunning asosiy talablari – har bir sohada mustaqil bo'lish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va jahon andozalari doirasida faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Buni biz zamonaviy kompozitorlik ijodining keskin rivoj topgani va ommaviy Estrada musiqa shakllarning xalqimiz orasida keng tarqalganida ko'ramiz. Musiqamizda zamon ruhi bilan sug'orilgan umumbashariy musiqiy shakllar tobora rivojlanib bormoqda. Zamonaviy musiqamiz asl holini bugungi kunimizga xos holda, yangi dunyoviy janrlar bilan boyib borayotganini qayd etishimiz joiz. Folklor musiqasini milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizning ohanglardagi ko'rinishi desak bo'ladi. Bu namunalar xalqimizning kundalik hayoti, mashg'uloti va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni asrash va kelajak avlodga 37 to'laqonli yetkazish maqsadida maxsus folklor ansambllari tashkil etish joriy etilgan va ayni paytda faoliyat yuritib kelmoqda.

Estrada musiqasi. Estrada so'zi lotin tilida "*tepalik*" (supa) ma'nosini anglatadi. XX asrning 50 – yillarida estrada so'zi musiqaga kirib keldi va tomosha san'atining kichik shakli sifatida qo'llanila boshlandi. Estrada musiqasi estrada san'atining yetakchi bir qismini tashkil etadi. Estrada – bu yengil maishiy xarakterga ega, ommabop musiqa bo'lib, uning tashkil topish tarixi g'arb xalqlarining teatr – tomosha shakllaridan boshlanadi. Bu G'arbda ommalashgan kafeshaktan, muzikxoll madaniyatlarining o'zaro ta'sirida rivojlandi. Asta – sekin jaz, Yevropa va Sharq garmoniya va ritmikasi, rok, pop kabi musiqalar va yo'nalishlar estradani egalladi. O'zbekistonda ham estrada musiqasi XX asrning 50 – yillarida shakllana

² Russkaya sovetskaya estrada // Essays on history. Otv. ed. Ph.D. isk., prof. E.Uvarova. V 3-x T. M., 2012.



boshladi³. Unga taniqli estrada yulduzi Botir Zokirov asos soldi. 1957 – yili o'zbekistonlik yosh estrada guruhi Moskvada o'tkazilgan yoshlarning VI Xalqaro festivalida ilk bor muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli 4-o'ringa sazovor bo'ldi. Bu katta yutuq edi. Shundan so'ng estrada musiqasi tez ommalashdi va rivojlandi. "Yalla", "Paxtaoy", "Navo", "Sado"⁴ kabi estrada guruhlari shakllandi.

Zamonaviy kompozitorlik ijodida Estrada musiqasi alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda bir qator o'zbek kompozitorlari ijod qilishgan va davom etib kelishmoqda. Misol uchun, Rustam Abdullayev, Xabibullo Rahimov, Nadim Narxodjayev, Dilorom Amannulayeva, Avaz Mansurov, Xurshida Hasanova, Oydin Abdullayeva va boshqa ko'plab yosh bastakorlar samarali faoliyat yuritmoqda. Estrada qo'shig'i janrida ishlash bastakordan juda ko'p narsani talab qiladi: vaqtni sezgir his qilish, o'ziga xos "barometr" bo'lish, tinglovchilarning badiiy didini hisobga olish, tegishli mavzularni tanlash. O'zbek bastakorlarining estrada qo'shiqlarini tavsiflab, shuni ta'kidlash kerakki, ular bizning davrimizning umumiy rivojlanishiga mos keladi. "Pop san'atidagi uslubiy yo'nalish, – deydi D. Amanullayeva, – bu davr va tinglovchi tomonidan belgilanadigan o'ziga xos "moda". Qo'shiq vaqtning aksi, hayotimizning "ko'zgusi".

Estrada qo'shiqlarini rivojlantirish uchun kompozitor D. Amanullayev tomonidan bir qator ilmiy o'quv qo'llanmalari nashr etilgan⁵: "Estrada qo'shiqlari" (*Toshkent.*, 2007), estrada-jaz vokalizlari (*Toshkent.*, 2014), estrada qo'shiqlari (*Toshkent.*, 2015), ular o'quv jarayoniga kiritilgan va estrada talabalari uchun fundamental o'quv materialini hisoblanadi. Ushbu janrda faqat zamon bilan hamnafas bo'lgan bastakorlar o'zlarining yaxshi natijalariga muvoffiq bo'lishadi. O'zbekistonning ko'plab bastakorlariga ommaviy tinglovchilar orasida keng mashhurlik keltirgan estrada janrining o'ziga xosligi ko'pgina bastakorlar uchun bu janr yangi, qiziqarli, faol ijodiy yo'l ni ochdi.

1970-1980-yillarda o'sha davrning deyarli barcha kompozitorlari Mutal Burxanov, Manas Leviyev, Sharif Ramazanov, G'ofur Qodirov, I. Akbarov, I. Hamrayev estrada musiqasi janrida ishlagan va bu milliy o'ziga xos ifoda vositalarini izlash bilan bog'liq edi. Kompozitor Ikrom Akbarov atoqli Estrada xonandasi O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov uchun maxsus yozilgan va ilk bor yangragan "Ra'no", "Gazli ko'xliklari", "Maxbubga", "Ketma Nigor", "Qaydasan", "Yor kel", "Qo'shchinor", "Qor yog'ar", "Baxor vasli", "Azizim", "Lolazor chorlaydi" kabi estrada qo'shiqlari o'zbek Estrada kompozitorlik ijodida o'zining jozibasi bilan shuxrat qozondi. Estrada san'atidagi bu yuksalish dunyoga yorqin namunalarni berdi, ular keyinchalik o'zbek estradasining klassikasiga aylandi. Shuningdek, bizga ma'lumki estrada musiqasida bolalar qo'shiqlari alohida o'rin tutadi, ular bastakordan bolalar psixologiyasi, bolalarning vokal ma'lumotlari va ovozli qobiliyatlari, bolalar dunyosini, uning xilma-xilligi va xilma-xilligini sezgir his qilish qobiliyatini bilishni talab qiladi. Bastakor bolalar qo'shig'ining musiqiy tizimini yangilashning belgilaridan biri bu bastakorlarning oldingi tajribalari (*D. Saydaminova, A. Mansurov, D. Amanullayev*) va 1980-yillarda yaratilgan birinchi bolalar VIA

³ Амануллаева Д. Обзор стилистических направлений вокально-джазового искусства Узбекистана (1991 – 2009 гг.) // Процессы реформирования системы музыкального образования. Т., 2009.

⁴ [https://www.ziyouz.com/books/darsliklar/musiqqa/Musiqqa.%206-sinf%20\(2008,%20S.Begmatov,%20D.Karimova\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/darsliklar/musiqqa/Musiqqa.%206-sinf%20(2008,%20S.Begmatov,%20D.Karimova).pdf)

⁵ Амануллаева Д. Обзор стилистических направлений вокально-джазового искусства Узбекистана (1991 – 2009 гг.) // Процессы реформирования системы музыкального образования. Т., 2009.



(*Paxtaoy, G'uncha*) faoliyati bilan kutilgan estrada musiqasi texnikasidan keng foydalanish imkonini beradi.

O'zbek bastakori ijodidagi estrada qo'shig'i insonga, uning his-tuyg'ulari va fikrlariga qaratilgan. Ushbu janrda zamonaviy inson hayotini, uning vaqtini aks ettirishga qaratilgan turli xil mavzular va syujetlar yoritilgan⁶. Bastakorlar o'z qo'shiqlari uchun o'ziga xos ritmointonatsiyalarni, musiqiy ifoda vositalarini, musiqiy materiallarni joylashtirishni topadilar, ammo qo'shiqlarda eng muhimi bastakorlar eng yaxshi musiqiy tildan – o'zbek qo'shiq lirikasiga xos bo'lgan ashuladan yaratadigan ohangdir va shu bilan an'analarni davom ettiradi. O'zbek estrada musiqasi hozirgi kunda musiqa san'ati yo'nalishlari asoslariga mos keladi va ushbu janrning barcha talablari va ko'rsatkichlariga javob beradi.

Hozirda O'zbekistonda Estrada san'atini rivojlantirish, Estrada jamoalari hamda yakka ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar "*O'zbeknavo*" birlashmasiga yuklatilgan. Estrada o'quv yo'nalishi sifatida maxsus ta'lim tizimiga kiritilgan. 1996-yildan Toshkent estrada kolleji, O'zbekiston davlat konservatoriyasi va boshqalar san'at (*musiqqa*) o'quv yurtlarida Estrada fakultetlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 2021-yilda prezident qaroriga asosan "*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti*" tashkil qilindi.⁷ Albatta bu ham Estrada san'atining yanada rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa.

Yuqoridagilardan shui xulosa qilish kerakki, yurtimizda Estrada san'atining rivojlanishi o'zbek musiqa madaniyatiga o'zining ijobiy va salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Estrada san'atining rivojlanishida fortepiano ijrochiligi ahamiyatlidir, chunki Estrada musiqalari dastlab vokal va fortepiano uchun yozilgan, shu sababli ham o'z o'rniga egadir.

References:

1. Russkaya sovetskaya estrada // Essays on history. Otv. ed. Ph.D. isk., prof. E.Uvarova. V 3-x T. M., 2012.
2. Vermenich Yu. va bu jazz. Sankt-Peterburg: Nevskiy jamg'armasi, 2005. 448 p.
3. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.
4. Амануллаева Д. Обзор стилистических направлений вокально-джазового искусства Узбекистана (1991 – 2009 гг.) // Процессы реформирования системы музыкального образования. Т., 2009.

⁶ История узбекской советской музыка, том III. Т., 1991.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.10.2021 yildagi PQ-5261-son